

YANGI O‘ZBEKISTON TA’LIM ISTIQBOLI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Shernazarova Marhabo Mirzaaxrorovna

Nizomiy nomidagi TDPU, 1-kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonda ta’limga bo‘lgan e’tibor, qabul qilingan qonunlar va ta’lim islohotlari, pedagogika sohasidagi hamda bo‘lajak dizaynerlar duch kelayotgan ayrim muammolar va ularga yechimlar haqida mulohaza yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Yangi O‘zbekiston, dual ta’lim, grafik dasturlar, bo‘lajak dizaynerlar, islohot, innovatsiya, zamonaviy yondashuv, inklyuziv ta’lim.*

Kirish: “Har kim ta’lim olish huquqiga ega. Davlat uzluksiz ta’lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojlanishini ta’minlaydi”.[1]. Bizning tariximiz avvalo Ibn Sino, Al Xorzamiy, Al Beruniy, Farobiy kabi buyuk allomalarimiz shajarasi bilan bog‘lanar ekan, ulug‘ ajdodlarimiz bilan faxrlangan holda ularga munosib avlod bo‘lishga, mamlakatimiz ilmiy taraqqiyotiga hissa qo‘shishga intilayotgan yosh avlodga munosib ta’lim berishimiz ularning ilmiy - ta’limiy ehtiyojlarini qondirishimiz zaruriyati oshmoqda. Bugun insoniyat tinimsiz rivojlanib tobora virtuallashayotgan texnika asri tomon ildam bormoqda. Texnika fanlarining rivojlanishi, sun’iy intellektning kirib kelishi, robotexnika yutuqlari insoniyat mushkulini oson qilishi bilan birga ko‘plab muammolar va ularga yechim topish, zamon bilan hamnafas faoliyat olib borish, ta’lim olish va ta’lim berishdek vazifalarni yuklamoqda.

Biz ta’lim tizimi va uning rivojlanishiga davlat siyosati nuqtai nazarida yondashadigan, keng istiqbolli mamlakat fuqarolari sifatida albatta ta’lim sifati va uning rivojiga beparvo bo‘la olmaymiz. Buning uchun avvalo ta’lim tizimidagi barcha katta-kichik muammolarga birgalikda yechim topish ta’lim tizimida faoliyat olib borayotgan kasb fidoyilari uchun bir qator vazifalar yuklaydi. Jumladan bugun ta’lim tizimimizda ham bir qancha muammolar mavjud bo‘lib, ularga kadrlar malakasi va o‘qituvchilarning salohiyati: ya’ni ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlarga tayyor, zamonaviy o‘qituvchilar yetishmayotganligini misol qilib

keltirishimiz mumkin. So‘nggi yillarda mamlakatimizda ta‘limga bo‘lgan e‘tibor yanada kuchayib borayotganligini 2017 yilda qabul qilingan Harakatlar strategiyasi va uning 3-ustuvor yo‘nalishida ya‘ni - “ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo‘naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoyasi va sog‘lig‘ini saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo‘l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo‘yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta‘lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san‘at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish”[2]. bo‘yicha qabul qilingan alohida maqsad va dasturlarning ishlab chiqilishi, bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2020 yil 23 sentabr kuni «Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonunning imzolashi bilan, amalda bo‘lgan 1997 yil 29 avgustdagi hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida»gi Qonunlar o‘z kuchini yo‘qotdi. Ushbu Qonun fuqarolarga ta‘lim, tarbiya berish, kasb-hunar o‘rgatishning huquqiy asoslarini belgilaydi hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta‘minlashga qaratilgan”[3]. Ushbu Qonun ta‘lim to‘g‘risidagi ko‘plab munosabatlarga oydinlik kiritadi. Jumladan mazkur Qonunga asosan ta‘lim sohasidagi asosiy printsiplar, ta‘lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo‘yildi, unda belgilangan masofaviy ta‘lim haqidagi qoidalar o‘quv rejalari va o‘quv dasturlariga muvofiq ta‘lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko‘nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan.

Shuningdek, Qonunga ko‘ra, davlat oliy ta‘lim, o‘rta maxsus, professional ta‘lim muassasalari va ularning filiallari, shuningdek davlat ishtirokidagi oliy, o‘rta maxsus, professional ta‘lim tashkilotlari va ularning filiallari Prezident yoki Hukumat qarorlari bilan tashkil etiladigan bo‘ldi. Nodavlat ta‘lim muassasalarini tashkil etish ularning ta‘sischilari tomonidan amalga oshirilishi belgilandi. Nodavlat ta‘lim tashkilotlariga litsenziya Ta‘lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan beriladigan bo‘ldi.

Qonunda dual ta‘limga oid qoidalar belgilanib, u ta‘lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko‘nikmalarni olishga qaratilgan bo‘lib, ularning nazariy qismi ta‘lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta‘lim oluvchining ish joyida

amalgama oshiriladi. Bundan tashqari, qonunga inklyuziv ta'lim to'g'risidagi qoidalar kiritilib, unga binoan, inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etadi.

Mazkur qonun jahon standartlari talablaridan kelib chiqqan holda ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishning qamrovi kengligi va o'ziga xos xususiyatga ega ekanligi bilan 1997 yil 29 avgust kuni qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonundan tubdan farq qiladi.[4]. Ayniqsa yangi qabul qilingan Konstitutsiyamizda ham ta'limga, o'qituvchining sha'ni va manfaatlariga alohida e'tibor qaratilgani ta'lim sohasiga bo'lgan e'tiborning yuksak na'munasi bo'lib xizmat qilmoqda.

Qator qabul qilingan Qonun va qarorlar, keng ochib berilayotgan imkoniyatlarga qaramasdan yuqorida ta'kidlab o'tilgan muammolar bizning bugungi kun ta'lim sohasidagi og'riqli nuqtalarimizdan biridir. Bu muammolarga ta'lim tizimini raqamlashtirish: elektron darsliklar, onlayn ta'lim platformalari, raqamli baholash tizimlarini to'liq joriy qilish, bu orqali esa ta'lim sifati va ochiqqligini yanada oshirishga erishish, pedagog kadrlar tayyorlashda sifat ko'rsatkichlarini oshirish - oliy ta'lim muassasalari o'quv rejalarini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish, magistratura bosqichida ilmiy-tadqiqot faoliyatiga alohida e'tibor qaratish. Ayniqsa zamonaviy IT sohasini chuqurroq o'rgatishni yo'lga qo'yishimiz zarur. Chunki bugungi kun va kelajakni sun'iy intellektsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Birgina o'zim tahsil olayotgan Muhandislik grafikasi va dizayn nazariyasi mutaxassisligi nuqtai nazaridan tahlil qiladigan bo'lsak, bo'lajak dizaynerlar o'quv re'jasidan tashqari bir necha zamonaviy kompyuter dasturlarini chuqur o'zlashtirishga ehtiyoj ortib bormoqda. Jumladan zamonaviy grafik dasturlar yoki dizayn sohasida ilmiy pedagogik ish olib borayotgan talabalar (magistrlar, doktorantlar) tadqiqot jarayonida o'z ilmiy ishlarini bir necha zamonaviy grafik dasturlar misolida tadqiq qilsa ko'zlangan natija yanada samarali bo'ladi. Amaldagi o'quv re'jasida esa faqatgina bitta, ya'ni AutoCad dasturi bo'yicha darslar olib boriladi. Ammo bundan tashqari Luminion, 3D MAX, Sketch Up kabi grafik dasturlarni o'rganishga, amaliyotda qo'llashga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Zamonaviy oliy ta'lim muassasalarida

bo‘lajak dizaynerlarga bir necha grafik dasturlarda ta’lim berish yo‘lga qo‘yilsa ularning kreativ fikrlashi, ijodkorligi hamda loyihalash ko‘nikmasi yuqori rivojlanishiga erishiladi. Bu jarayon albatta pedagoglarimiz malakasini yanada oshirish, zamonaviy ta’lim jarayoniga moslashtirishni taqozo etadi. Bundan tashqari xalqaro hamkorlikni kengaytirish - Yangi O‘zbekiston ta’lim tizimining jahon ta’lim makoniga integratsiyalashuvi maqsadida chet el universitetlari bilan qo‘shma dasturlar va akademik almashinuvlar yo‘lga qo‘yilishi mamlakatimizni ta’lim istiqboli sari yetaklaydi. Innovatsion yondashuvlar va metodik yangilanishlar, amaliyotga yo‘naltirilgan, kasbiy kompetensiyalarga asoslangan ta’lim metodikalari joriy qilinishi, bunda STEAM yondashuvi,[5] kritik fikrlash, loyihalash asoslari keng o‘rgatilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Xulosa, O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, pedagog xodimlar malakasi va ilmiy salohiyatini oshirish ushbu sohadagi islohotlarni yanada keng ko‘lamda davom ettirish davr talabidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF–5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi mazkur sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda. Shuni e’tirof etish kerakki, ta’lim sohasidagi islohotlar ham bugungi kunda o‘zining dolzarbligi hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalardagi islohotlardan aslo qolishmaydi. Chunki ushbu sohadagi islohotlarni yanada keng ko‘lamda davom ettirish davr talabi va ehtiyojidir. Zero, ta’lim istiqboli mamlakat taraqqiyoti poydevori va garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, IX bob 50-moddasi.
2. <https://lex.uz/mact/-3107036>.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”dagi Qonuni 1-modda.
4. <https://fyut.uz/?p=446>. Ta’lim sohasidagi islohotlar. 17.11.2020.
5. Usmanova, R. (2023). "O'zbekistonda ta'limni modernizatsiya qilish: istiqbollar va muammolar." Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim vazirligi.